

MUHANDISLIK

& IQTISODIYOT

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

№3
MAXSUS SON

2026

IYUN



Milliy nashrlar

OAK: <https://oak.uz/pages/4802>

05.00.00 – Texnika fanlari

08.00.00 – Iqtisodiyot fanlar



Google Scholar

OPEN ACCESS

ULRICHSWEB[™]
GLOBAL SERIALS DIRECTORY

Academic
Resource
Index
ResearchBib

ISSN
INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE

CYBERLENINKA

OpenAIRE

ROAD

INDEX COPERNICUS
INTERNATIONAL

BASE

Crossref

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ
БИБЛИОТЕКА
LIBRARY.RU

**BAKALAVR
TALABALARINING
MAQOLALARI
TO'PLAMI**

РЭУ.РФ
РОССИЙСКИЙ ЭКОНОМИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ
ИМЕНИ Г.В. ПЛЕХАНОВА
ТАШКЕНТСКИЙ ФИЛИАЛ



muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Elektron nashr,
iyun, 2026-yil.

Bosh muharrir:

Zokirova Nodira Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, DSc, professor

Bosh muharrir o'rinbosari:

Shakarov Zafar G'afforovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD, dotsent

Tahrir hay'ati:

Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'z FA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Sharipov Kongratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori, professor

Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shaumarov Said Sanatovich, texnika fanlari doktori, professor

Turayev Bahodir Xatamovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nasimov Dilmurod Abdulloevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Allayeva Gulchexra Jalgasovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Arabov Nurali Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Xamrayeva Sayyora Nasimovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bobonazarova Jamila Xolmurodovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Irmatova Aziza Baxromovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bo'taboyev Mahammadjon To'ychiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor,

Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Amanov Otabek Amankulovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Qurbonov Samandar Pulatovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tabayev Azamat Zaripbayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sxay Lana Aleksandrovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Ismoilova Gulnora Fayzullayevna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kasimova Nargiza Sabitdjanovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kalanova Moxigul Baxritdinovna, dotsent

Ashurzoda Luiza Muxtarovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Bauyetdinov Majit Janizaqovich, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD

Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sultonov Shavkatjon Abdullayevich, Kimyo fanlari doktori, (DSc)

Jo'raeva Malohat Muhammadovna, filologiya fanlari doktori (DSc), professor.



muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi
05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari
05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash
05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari
05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti
05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi
05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari
05.01.07 – Matematik modellash
05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt
05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik
05.02.08 – Yer usti majmualari va uchish apparatlari
05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti
05.04.01 – Telekommunikatsiya va kompyuter tizimlari, telekommunikatsiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash
05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi
05.05.05 – Issiqlik texnikasining nazariy asoslari
05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari
05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi

05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish
05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar
05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari
10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik
10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti
08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi
08.00.02 – Makroiqtisodiyot
08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti
08.00.04 – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
08.00.06 – Ekonometrika va statistika
08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit
08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
08.00.09 – Jahon iqtisodiyoti
08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
08.00.11 – Marketing
08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot
08.00.13 – Menejment
08.00.14 – Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

Ma'lumot uchun, OAK
Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagi 360/5-son qarori bilan "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga texnika va iqtisodiyot fanlari bo'yicha "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga kiritilgan.

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz:

1. Toshkent shahridagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-texnologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti



MUNDARIJA

ИССЛЕДОВАНИЕ ПРОЦЕССОВ ОБРАЗОВАНИЯ ПРИГАРА В ПЕСЧАНО-ГЛИНИСТЫХ ФОРМАХ
ПРИ ПРОИЗВОДСТВЕ СТАЛЬНЫХ ОТЛИВОК.....8

Эркинбоева Мафтуна Элдор кизи

XORIY TAJRIBASI ASOSIDA BOLALAR VA O'SMIRLAR TURIZMINI RIVOJLANTIRISH
YO'NALISHLARI.....13

Ergashkulov Muyinjon, Musinova Mexrangiz



XORIY TAJRIBASI ASOSIDA BOLALAR VA O'SMIRLAR TURIZMINI RIVOJLANTIRISH YO'NALISHLARI

Ergashkulov Muyinjon Umedovich

“Ipak yo‘li” turizm va madaniy meros xalqaro universiteti
Menejment (turizm biznesini boshqarish) ta'lim yo'nalishi
3-kurs talabasi
E-mail: muinergashkulov@gmail.com

Ilmiy rahbar: MUSINOVA Mexrangiz Farxodovna

“Ipak yo‘li” turizm va madaniy meros xalqaro universiteti
“Xalqaro biznes va kreativ iqtisodiyot” kafedrası assistent-o'qituvchisi
E-mail: mexa8887@mail.ru
ORCID: 0009-0003-6614-4787

Annotatsiya. Mazkur maqolada xorijiy mamlakatlar tajribasi asosida bolalar va o'smirlar turizmini rivojlantirishning zamonaviy yo'nalishlari tahlil qilingan. Tadqiqotda yoshlar turizmining tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlari, davlat va xususiy sektor hamkorligi, shuningdek, ta'limiy va madaniy turizm dasturlarining samaradorligi o'rganildi. Shuningdek, ilg'or xorijiy tajribani milliy turizm tizimiga tatbiq etish imkoniyatlari va istiqbollari yoritilgan. Maqola natijalari bolalar va o'smirlar turizmini rivojlantirishda innovatsion yondashuvlarni joriy etish zarurligini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: bolalar turizmi, o'smirlar turizmi, xorijiy tajriba, turizm siyosati, yoshlar turizmi, ta'limiy turizm, madaniy almashinuv.

Abstract. This article analyzes modern directions for the development of children's and youth tourism based on international experience. It examines organizational and economic mechanisms of youth tourism, public-private partnership models, and the effectiveness of educational and cultural tourism programs. The study also highlights opportunities for adapting advanced foreign practices to the national tourism system. The results emphasize the need to introduce innovative approaches in the development of children's and youth tourism.

Keywords: children's tourism, youth tourism, international experience, tourism policy, youth travel, educational tourism, cultural exchange.

Аннотация. В данной статье анализируются современные направления развития детского и подросткового туризма на основе зарубежного опыта. Исследуются организационно-экономические механизмы молодежного туризма, взаимодействие государственного и частного секторов, а также эффективность образовательных и культурных туристических программ. Особое внимание уделяется возможностям внедрения передового зарубежного опыта в национальную туристическую систему. Результаты исследования подчеркивают необходимость внедрения инновационных подходов в развитие детско-юношеского туризма.

Ключевые слова: детский туризм, подростковый туризм, зарубежный опыт, туристическая политика, молодежный туризм, образовательный туризм, культурный обмен.

KIRISH

So'nggi yillarda jahon turizm industriyasida bolalar va o'smirlar turizmi alohida strategik ahamiyat kasb etayotgan yo'nalishlardan biri sifatida shakllanmoqda. Bu turizm turi nafaqat iqtisodiy samaradorlikni oshirish, balki yosh avlodning dunyoqarashini kengaytirish, ularning madaniy, ma'naviy va ijtimoiy rivojlanishini ta'minlashda ham muhim rol o'ynaydi. Xususan, rivojlangan mamlakatlarda bolalar va o'smirlar turizmi davlat dasturlari va turizm siyosati doirasida qo'llab-quvvatlanib, maxsus dasturlar va infratuzilma asosida rivojlantirilmoqda. O'zbekiston Respublikasida ham turizm sohasini diversifikatsiya qilish, yoshlar turizmini rivojlantirish hamda xalqaro tajribani milliy amaliyotga tatbiq etish bo'yicha keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Biroq bolalar va o'smirlar turizmini tizimli rivojlantirish, uning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish hamda zamonaviy innovatsion yondashuvlarni joriy etish borasida takomillashtirishni talab



qiluvchi jihatlar mavjud.

Shu nuqtayi nazardan, xorijiy mamlakatlar tajribasini chuqur o'rganish va ularni milliy turizm tizimiga moslashtirish dolzarb ilmiy-amaliy vazifa hisoblanadi. Ayniqsa, ta'limiy turizm, madaniy almashinuv dasturlari, bolalar lagerlari va xalqaro yoshlar sayohatlarini tashkil etish bo'yicha ilg'or tajribalarni tahlil qilish muhim ahamiyatga ega. Tadqiqotning maqsadi – xorijiy tajriba asosida bolalar va o'smirlar turizmini rivojlantirish yo'nalishlarini tahlil qilish hamda O'zbekiston sharoitida ularni tatbiq etish bo'yicha ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat. Tadqiqot vazifalari quyidagilardan iborat:

- bolalar va o'smirlar turizmining nazariy asoslarini o'rganish;
- rivojlangan mamlakatlar tajribasini tahlil qilish;
- ushbu sohani rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini aniqlash;
- O'zbekiston sharoitida qo'llash mumkin bo'lgan amaliy tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqot obyekti sifatida bolalar va o'smirlar turizmi tizimi, predmeti sifatida esa uni rivojlantirishning xorijiy tajribaga asoslangan yo'nalishlari tanlab olingan. Tadqiqotda tahlil va sintez, qiyosiy tahlil, statistik umumlashtirish hamda tizimli yondashuv metodlaridan foydalanildi. Maqolaning ilmiy yangiligi shundan iboratki, unda xorijiy tajriba asosida bolalar va o'smirlar turizmini rivojlantirishning zamonaviy tendensiyalari tizimli ravishda tahlil qilinib, milliy turizm tizimiga moslashtirish bo'yicha takliflar ishlab chiqilgan.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Bolalar va o'smirlar turizmini rivojlantirish masalasi xalqaro va mahalliy ilmiy adabiyotlarda turizm iqtisodiyoti, yoshlar siyosati hamda ta'limiy turizm yo'nalishlari doirasida keng o'rganilgan. Mazkur sohada olib borilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, yoshlar turizmi nafaqat iqtisodiy, balki ijtimoiy-madaniy ahamiyatga ega bo'lgan kompleks tizim sifatida qaraladi.

Xorijiy olimlardan J. Swarbrooke va S. Horner yoshlar turizmini turizmning maxsus segmenti sifatida ko'rib, uning asosiy xususiyatlari sifatida ta'limiylik, xavfsizlik va moslashtirilgan xizmatlar tizimini ajratib ko'rsatgan. Ularning fikricha, bolalar va o'smirlar turizmi rivojlanishi uchun maxsus infratuzilma va davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash mexanizmlari muhim ahamiyatga ega. D. Buhalis turizmni raqamlashtirish va innovatsion boshqaruv tizimlari doirasida yoshlar turizmining yangi shakllarini tahlil qilib, raqamli platformalar orqali sayohatlarni tashkil etish samaradorligini oshirish mumkinligini ta'kidlaydi. Bu yondashuv, ayniqsa, Yevropa mamlakatlarida keng qo'llanilmoqda.

R. Sharpley esa turizmni barqaror rivojlantirish konsepsiyasi doirasida yoshlar turizmining ekologik va ijtimoiy jihatlarini o'rganib, bolalar turizmi dasturlarida ekologik ta'lim elementlarini kiritish zarurligini asoslab bergan.

MDH mamlakatlari olimlaridan V. A. Kvartalnov va A. S. Kuznetsovlar yoshlar turizmini tashkil etishning tashkiliy-iqtisodiy asoslarini tahlil qilib, bolalar dam olish lagerlari, ta'limiy sayohatlar va madaniy almashinuv dasturlarining samarali modelini ishlab chiqqanlar.

O'zbekistonlik iqtisodchi va turizm sohasi mutaxassislari ham ushbu yo'nalishda bir qator tadqiqotlar olib borgan. Xususan, S. S. G'aniyev, N. N. Karimova va boshqa olimlar respublikada turizmni rivojlantirishning strategik yo'nalishlarini o'rganib, yoshlar turizmini rivojlantirishda davlat dasturlari va xususiy sektor hamkorligining ahamiyatini ta'kidlaganlar. Ularning ilmiy ishlarida infratuzilmani modernizatsiya qilish, xizmatlar sifatini oshirish va xalqaro tajribani joriy etish zarurligi asoslab berilgan. Shuningdek, so'nggi yillarda xalqaro tashkilotlar, jumladan, Jahon turizm tashkiloti (UNWTO) tomonidan e'lon qilingan hisobotlarda yoshlar turizmi global turizm bozorining tez rivojlanayotgan segmenti sifatida qayd etilgan. Ushbu hisobotlarda bolalar va o'smirlar turizmini rivojlantirishda xavfsizlik standartlari, raqamli texnologiyalar va inklyuziv yondashuv muhim omillar sifatida ko'rsatilgan. Umuman olganda, mavjud adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, bolalar va o'smirlar turizmini rivojlantirishda xorijiy tajribani o'rganish, innovatsion yondashuvlarni joriy etish hamda davlat-xususiy sheriklik mexanizmlarini kuchaytirish dolzarb ilmiy-amaliy ahamiyatga ega.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda bolalar va o'smirlar turizmini rivojlantirishning xorijiy tajribaga asoslangan yo'nalishlarini o'rganish maqsadida kompleks ilmiy yondashuv qo'llanildi. Tadqiqot jarayonida nazariy va amaliy usullar uyg'unlashtirilib, mavzuni chuqur tahlil qilishga imkon beruvchi ilmiy metodlardan foydalanildi. Tadqiqotning metodologik asosi sifatida turizm iqtisodiyoti, barqaror rivojlanish konsepsiyasi hamda yoshlar siyosatiga oid zamonaviy ilmiy qarashlar tanlab olindi. Shuningdek, bolalar va o'smirlar turizmini rivojlantirishga doir xalqaro tashkilotlar (UNWTO va boshqalar) tavsiyalari ham metodologik baza sifatida xizmat qildi. Tadqiqot jarayonida quyidagi ilmiy metodlardan foydalanildi:

- Tizimli yondashuv metodi – bolalar va o'smirlar turizmini yaxlit tizim sifatida o'rganish, uning tarkibiy



qismlari va o'zaro bog'liqligini aniqlash imkonini berdi;

– Qiyosiy tahlil metodi – xorijiy mamlakatlar (Yevropa davlatlari, MDH va Osiyo tajribasi) bilan O'zbekiston amaliyoti solishtirildi;

– Tahlil va sintez metodi – mavjud ilmiy adabiyotlar, statistik ma'lumotlar va amaliy tajribalar asosida umumiy xulosalar ishlab chiqildi;

– Statistik tahlil metodi – turizm sohasidagi yoshlar segmentiga oid ma'lumotlar umumlashtirilib, tendensiyalar aniqlandi;

– Induksiya va deduksiya metodlari – alohida holatlardan umumiy qonuniyatlarga va umumiy xulosalardan amaliy tavsiyalarga kelish uchun qo'llanildi.

Tadqiqotning axborot bazasini Jahon turizm tashkiloti (UNWTO) hisobotlari, xorijiy ilmiy maqolalar, O'zbekiston Respublikasi turizm sohasiga oid me'yoriy-huquqiy hujjatlar, davlat dasturlari hamda statistik ma'lumotlar tashkil etdi. Tadqiqot davomida olingan natijalar bolalar va o'smirlar turizmini rivojlantirishda xorij tajribasini milliy sharoitga moslashtirish, innovatsion yondashuvlarni joriy etish hamda tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarni takomillashtirish imkoniyatlarini asoslashga xizmat qiladi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Bolalar va o'smirlar turizmini rivojlantirishda xorijiy mamlakatlar tajribasi shuni ko'rsatadiki, ushbu soha eng ko'p qo'llab-quvvatlanadigan yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, Yevropa davlatlari, Janubiy Koreya va Turkiya tajribasida davlat dasturlari, maxsus infratuzilma hamda ta'limiy turizm paketlari keng joriy etilgan. Tahlillar natijasida bolalar va o'smirlar turizmini rivojlantirishning asosiy yo'nalishlari quyidagilardan iborat ekanligi aniqlandi:

- ta'limiy va madaniy sayohatlarni rivojlantirish;
 - bolalar lagerlari va yozgi dam olish maskanlarini kengaytirish;
 - davlat-xususiy sheriklik mexanizmlarini kuchaytirish;
 - xavfsizlik standartlarini takomillashtirish;
 - raqamli platformalar orqali turizm xizmatlarini tashkil etish.
- Quyidagi jadvalda ayrim mamlakatlar tajribasi asosiy mezonlar bo'yicha taqqoslandi.

1-jadval

Xorijiy mamlakatlarda bolalar va o'smirlar turizmini rivojlantirish tajribasi¹

T/r	Mamlakat	Asosiy model	Davlat qo'llab-quvvatlashi	Asosiy yo'nalishlar
1	Germaniya	Ta'limiy turizm	Yuqori	Maktab sayohatlari, madaniy almashinuv
2	Fransiya	Lager tizimi	Yuqori	Yozgi oromgohlar, sport lagerlari
3	Janubiy Koreya	Raqamli turizm	O'rta–yuqori	Innovatsion ta'lim sayohatlari
4	Turkiya	Oilaviy va bolalar turizmi	Yuqori	Dam olish kurortlari, bolalar klublari
5	Rossiya	Davlat dasturlari	Yuqori	Bolalar lagerlari, ichki turizm

Grafik va jadval tahlili shuni ko'rsatadiki, Germaniya va Fransiya bolalar va o'smirlar turizmini rivojlantirish bo'yicha yetakchi mamlakatlar hisoblanadi. Ushbu davlatlarda ta'limiy turizm va madaniy almashinuv dasturlari tizimli yo'lga qo'yilgan. Janubiy Koreyada esa raqamli texnologiyalar asosida innovatsion turizm shakllari rivojlanib bormoqda. Turkiya va Rossiyada esa davlat dasturlari asosida bolalar lagerlari va ichki turizm tizimi ustuvor yo'nalish sifatida shakllangan. Umuman olganda, tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, bolalar va o'smirlar turizmini samarali rivojlantirish uchun quyidagi omillar hal qiluvchi ahamiyatga ega:

- davlat qo'llab-quvvatlashi;
- infratuzilma sifati;
- xavfsizlik tizimi;
- ta'limiy komponentning kuchliligi;
- raqamli texnologiyalarni joriy etish.



2-jadval

Rivojlangan davlatlarda bolalar va o'smirlar turizmining asosiy ko'rsatkichlari²

T/r	Mamlakat	Bolalar va o'smirlar turizmi ulushi (%)	Davlat qo'llab-quvvatlash darajasi	Yillik o'quv-turistik dasturlar soni	Raqamli platformalar integratsiyasi	Asosiy yo'nalish
1	Germaniya	28%	Yuqori	1200+	Juda yuqori	Ta'limiy + madaniy turizm
2	Fransiya	32%	Yuqori	1500+	Yuqori	Madaniy meros va ekskursiyalar
3	Janubiy Koreya	25%	O'rta–yuqori	900+	Juda yuqori	Innovatsion va STEM turizm
4	Yaponiya	30%	Yuqori	1300+	Yuqori	Intizomiy, madaniy va ekologik turizm
5	Turkiya	22%	O'rta	800+	O'rta–yuqori	Rekreatsion va tarixiy turizm
6	Rossiya	20%	O'rta	700+	O'rta	Ichki ta'limiy turizm
7	O'zbekiston	12–15%	Rivojlanayotgan	300+	O'rta	Boshlang'ich bosqich (ta'limiy turizm)

Jadvalda keltirilgan ma'lumotlar asosida shuni ta'kidlash mumkinki, rivojlangan davlatlarda bolalar va o'smirlar turizmi umumiy turizm tizimining muhim segmenti sifatida shakllangan bo'lib, uning ulushi o'rtacha 25–32 foizni tashkil etadi. Xususan, Fransiya va Yaponiya kabi davlatlarda ushbu yo'nalish yuqori darajada rivojlangan bo'lib, u ta'limiy, madaniy va tarbiyaviy funksiyalarni birlashtirgan kompleks tizim sifatida faoliyat yuritadi. Germaniya va Janubiy Koreya tajribasi esa bolalar va o'smirlar turizmini innovatsion yondashuvlar asosida rivojlantirish samarali ekanligini ko'rsatadi. Bu mamlakatlarda raqamli platformalarning keng joriy etilishi, STEM yo'nalishidagi ta'limiy sayohatlar hamda maxsus turistik dasturlarning ko'pligi ushbu segmentning barqaror o'sishiga xizmat qilmoqda. Turkiya va Rossiya kabi davlatlarda esa bolalar turizmi nisbatan o'rta darajada rivojlangan bo'lib, asosan ichki turizm va ekskursiya yo'nalishlariga tayanadi. O'zbekiston misolida esa ushbu soha hali rivojlanish bosqichida bo'lib, 12–15 foizlik ulush uning katta salohiyatga ega ekanligini, biroq institutsional va infratuzilmaviy qo'llab-quvvatlashga ehtiyoj mavjudligini ko'rsatadi. Umuman olganda, xorijiy tajriba shuni ko'rsatadiki, bolalar va o'smirlar turizmi faqat dam olish emas, balki ta'lim, ijtimoiylashuv va madaniy integratsiya vositasi sifatida ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Xorij tajribasini tahlil qilish natijalari shuni ko'rsatadiki, bolalar va o'smirlar turizmi zamonaviy turizm tizimining strategik yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Rivojlangan davlatlarda ushbu sohaning yuqori darajada shakllanishi davlat qo'llab-quvvatlashi, raqamli texnologiyalar integratsiyasi hamda ta'lim tizimi bilan uzviy bog'liqlik orqali ta'minlangan. O'zbekiston sharoitida ushbu yo'nalishni rivojlantirish uchun bir qator ustuvor vazifalarni amalga oshirish zarur. Jumladan, maktab va oliy ta'lim muassasalari bilan hamkorlikda tizimli ekskursiya dasturlarini joriy etish, bolalar turizmi infratuzilmasini modernizatsiya qilish hamda xavfsizlik standartlarini xalqaro talablarga moslashtirish muhim ahamiyatga ega. Shuningdek, davlat-xususiy sheriklik mexanizmlarini kengaytirish va raqamli platformalar asosida bolalar turizmi boshqaruv tizimini yaratish ushbu sohaning barqaror rivojlanishini ta'minlaydi. Umuman olganda, bolalar va o'smirlar turizmini rivojlantirish mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotida muhim o'rin egallaydi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

O'tkazilgan tahlillar shuni ko'rsatadiki, bolalar va o'smirlar turizmi rivojlangan mamlakatlarda turizm tizimining muhim va strategik segmenti sifatida shakllangan. Germaniya, Fransiya, Yaponiya va Janubiy Koreya tajribasi ushbu yo'nalishning yuqori darajada institutsionallashtirilganini, davlat tomonidan tizimli qo'llab-quvvatlanishini hamda ta'lim tizimi bilan uzviy integratsiya qilinganini tasdiqlaydi. Ushbu mamlakatlarda bolalar turizmi nafaqat dam olish, balki ta'limiy, tarbiyaviy va madaniy rivojlanish vositasi sifatida ham keng qo'llanilmoqda. Rivojlanayotgan davlatlarda, xususan, O'zbekistonda esa ushbu soha hali shakllanish bosqichida bo'lib, uning ulushi nisbatan past ekanligi (12–15%) mavjud imkoniyatlardan yetarlicha foydalanilmayotganini ko'rsatadi.



Shu bilan birga, sohaning o'sish salohiyati yuqori bo'lib, uni rivojlantirish uchun institutsional, tashkiliy va infratuzilmaviy yondashuvlarni takomillashtirish zarur.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Hall C. M. Tourism Planning: Policies, Processes and Relationships. 2nd ed. — Harlow: Pearson/Prentice Hall, 2008.
2. Fletcher J., Fyall A., Gilbert D., Wanhill S. Tourism: Principles and Practice. 6th ed. — Harlow: Pearson Education Limited, 2018.
3. UNWTO. World Tourism Barometer. — Madrid: World Tourism Organization, 2023.
4. Sharpley R. Tourism Development and the Environment: Beyond Sustainability? — London; New York: Routledge, 2009.
5. Buhalis D. eTourism: Information Technology for Strategic Tourism Management. — Harlow: Financial Times/Prentice Hall, 2003.
6. Smith V. L. Hosts and Guests: The Anthropology of Tourism. 2nd ed. — Philadelphia: University of Pennsylvania Press, 1989.
7. Абдукаримов Ф. Б. А., Мирзаева Ш. Н. Малый бизнес как фактор развития конкурентной среды национальной экономики Узбекистана // *Gospodarka i Innowacje*. — 2023. — Т. 36. — С. 657–667.
8. Абдукаримов Б. А. А., Мирзаева Ш. Н. Роль иностранных инвестиций в модернизации экономики в Республике Узбекистан // *Gospodarka i Innowacje*. — 2023. — Т. 36. — С. 648–656.
9. Mirzaeva Sh. N. The Importance of Investing in the Development of the Social Sphere in Our Country // *Central Asian Journal of Innovations on Tourism Management and Finance*. — 2023. — Vol. 4, No. 6. — P. 153–160.
10. Курбанова Р., Мирзаева Ш., Хакимов Д. Роль социальных сетей и технологий в измерении социального капитала // *Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари / Актуальные проблемы социально-гуманитарных наук / Actual Problems of Humanities and Social Sciences*. — 2023. — Т. 3, № S/4. — С. 204–216.
11. Шарипов Т. С., Мирзаева Ш. Н. Состояние внедрения инновационных проектов в сфере услуг в Узбекистане // *Gospodarka i Innowacje*. — 2023. — Т. 36. — С. 27–45.
12. Мирзаева Ш. Н. Зарубежный опыт поддержки предпринимательства и деловой активности женщин // *Gospodarka i Innowacje*. — 2023. — Т. 36. — С. 46–56.
13. Nodirovna M. S. Banks and Development of Banking Services in the Republic of Uzbekistan // *Web of Semantic: Universal Journal on Innovative Education*. — 2023. — Vol. 2, No. 6. — P. 21–30.
14. Nodirovna M. S. Foreign Experience in Supporting Entrepreneurship and Business Activity of Women // *Web of Synergy: International Interdisciplinary Research Journal*. — 2023. — Vol. 2, No. 5. — P. 654–665.
15. Saidakhmedovich S. T., Nodirovna M. S. The State of Implementation of Innovative Projects in the Service Sector in Uzbekistan // *Nexus: Journal of Advances Studies of Engineering Science*. — 2023. — Vol. 2, No. 5. — P. 375–391.
16. Nodirovna M. S. Creation of an Additional Product in the Service Process in the Republic of Uzbekistan // *Gospodarka i Innowacje*. — 2023. — Т. 35. — С. 635–643.
17. Nodirovna M. S. Problems of Development of the Service Sector in the Context of Digital Changes in the Republic of Uzbekistan // *Gospodarka i Innowacje*. — 2023. — Т. 35. — С. 626–634.

muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2-Maxsus son.

Bakalavr talabalarining maqolalari to'plami

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100